



# TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## **Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor**

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)






## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2020-yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-oktyabr oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar-oktyabr oylarida, ming birlikda)





# Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(2020-yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **30,1** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish  
 ■ O'rmon xo'jaligi  
 ■ Baliq xo'jaligi




## Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



416



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

7 871



Ishlab chiqarish sanoati

73



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

192



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2020-yil 1- noyabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 8 552 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,6 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 115,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 122,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 132,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,9 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 115,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,2 %) o'sishidir.




## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **19,4** foizga oshdi






### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

### Mikrofimlar

### Kichik korxonalar



**19,4**  
foizga  
oshdi




### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


### Oilaviy korxonalar



**23,3**  
foizga  
oshdi




**61,1**  
foizga  
oshdi




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan  
**64,1** foizga oshdi




### Xususiy korxonalar







## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




### Mikrofimlar




### Kichik korxonalar



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




### Oilaviy korxonalar



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



### Xususiy korxonalar



## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

690



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

23



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

23



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



290

Yashash bo'yicha xizmatlar



3 002

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 292 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili— oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 112,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 91,2 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 132,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 8,8 %) o'sishidir.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020-yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)





## Oilaviy korxonalar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 4 122 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 367 taga yoki 149,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 760 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 249 taga yoki 149,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 058 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97 taga yoki 110,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 31 821 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 115 taga yoki 123,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 28 450 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 730 taga yoki 125,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5 308 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 557 taga yoki 10,5 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 1 426 tani tashkil etib, ulardan 1 295 tasi yoki 90,8 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 196 taga yoki 117,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatimizda 124 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-oktyabr oylarida, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>539</b>	<b>586</b>	<b>799</b>	<b>1 099</b>	<b>1 295</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	39	52	68	106	126
<b>Sanoat</b>	351	373	501	644	700
<b>Qurilish</b>	9	13	21	39	64
<b>Savdo</b>	69	70	113	170	231
<b>Tashish va saqlash</b>	12	13	17	19	24
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	7	12	13	22	26
<b>Axborot va aloqa</b>		1	1	5	3
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	4	4	8	11	14
<b>Boshqa turlar</b>	48	48	57	83	107



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020-yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1295</b>	<b>653</b>	<b>642</b>
Oqqo'rg'on t.	13	6	7
Ohangaron t.	78	32	46
Bekobod t.	10	7	3
Bo'stonliq t.	51	27	24
Bo'ka t.	11	7	4
Quyichirchiq t.	44	24	20
Zangiota t.	163	74	89
Yuqorichirchiq t.	106	53	53
Qibray t.	132	70	62
Parkent t.	25	14	11
Piskent t.	19	10	9
O'rtachirchiq t.	82	41	41
Chinoz t.	18	10	8
Yangiyo'l t.	78	29	49
Toshkent t.	70	45	25
Nurafshon sh.	58	27	31
Olmaliq sh.	42	12	30
Angren sh.	91	60	31
Bekobod sh.	22	16	6
Ohangaron sh.	46	21	25
Chirchiq sh.	79	49	30
Yangiyo'l sh.	57	19	38

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent viloyati**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Tel.:71 202-86-83**